

AXLOQ VA IJTIMOIY HIMoya SOHASIDA IJTIMOIY ISH XODIMING KASBIY ETIKASI

Ziyadullayeva Parvina Temur qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

E-mail: parvina.ziyadullayeva@mail.ru

Annotatsiya: Barcha davrlarda insonning jamiyatda shaxs sifatida kamol topishida, yosh avlodning barkamol yetuk inson bo‘lib voyaga yetishishida, shuningdek, inson hayoti va kasbiy faoliyatida odob-axloq mihim ahmiyat kasb etadi. Davlatimizda ma’naviy va ma’rifiy ishlar borasida va ijtimoiy sohada xayrlin ishlar amalga oshirilmoqda.

Kalit so‘zlar: axloq, etika, kasb etikasi, ijtimoiy, ijtimoiy soha, islohotlar, ma’rifiy ishlar.

Hozirgi davr taraqqiyoti qanchalik ilgarilab bormasin odob-axloq va shirinsuxanlikning qadrri har kungidan orttib bormoqda. Zero, Barcha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolarni hal etish imkoniyati inson shaxsini tarbiyalash orqali yaratilgan. Go‘zal axloq va odob bilan belgilangan ma’naviy fazilatlar insonlar o‘rtasidagi barcha munosabatlarga singib ketganidan keyingina chinakam axloqiy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham axloqiy qadriyatlar nafaqat barcha jamiyatlarda balki barcha davrlarda ham insonning ma’naviy kamoloti, jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Shu bois, globallashgan XXI asrda yosh avlod tarbiyasi va yoshlarni odob axloqqa zid bulgan illatlardan himoya qilish dolzarb vazifadir.

Axloq — jamiyat, zamon, ba'zan insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan umumbashariy ahamiyatga ega ijobiylar xatti-harakatlar yig'indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisadir¹

Har bir jamiyatda muayyan guruqlar borki, egallagan kasblari ularni boshqa jamiyatdoshlariga nisbatan imtiyozli darajaga olib chiqadi. Ko'pchilik jamiyat a'zolarining hayot-mamotlari, sog'ligi, ma'naviy sog'lomligi, huquqiy himoyasi, ilmiy salohiyatining namoyon bo'lishi kabi omillar huddi shunday imtiyozli kasb egalarining o'z kasbiy burch mas'uliyatini qay darajada his yetishlariga, halollik va vijdon yuzasidan ish ko'rishlariga bog'liqligi hammaga ma'lum.

Har qanday kasbiy faoliyatda xodimlar, albatta, o'z hamkasblari va kasbdoshlari bilan yoki ish-faoliyat yuzasidan boshqa davlat vakillari yoki boshqa tashkilot xodimlari bilan muloqot jarayoniga kirishadi.

Kasb etikasi yoki kasbiy axloq- bu odamlarning kasb faoliyatidan kelib chiqadigan o'zaro munosabatlarining axloqiy xarakterini ta'minlaydigan qonuniyatlardir.²

Ijtimoiy himoya sohasida ijtimoiy ish xodimining kasbiy etikasi mezonlarini zamon talablaridan kelib taqdqiq etilmoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning bosh mezoni, ma'naviy- ma'rifiy sohadagi yangilanishlarning asosiy yo'nalishlari, zamonaviy dunyoqarashni shakllantirayotgan muhim omillar bevosita axloqning ma'naviyat tizimida muhim o'rinn tutganligidan dalolat beradi. Axloq normalari bir xalqdan boshqa xalqlarga, avloddan avlodga o'tib, borib, takomillashib boradi. Mukammal axloq va komil inson xaqidagi tushunchalar har bir davrning imkoniyatlari va mezonlari asosida belgilanadi.

Mavzuni yoritishda ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy mezonlarini yoritishga bag'ishlangan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.³ Bu tadqiqotlarda axloq va

¹ Abdulla Sher. Axloqshunoslik — T. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti, 2010. —8-bet

² A.A. Allaberganov, Ye.R. Akovbyans, M.S. Xodjayeva. Kasb etikasi va psixologiyasi – T. Cho'lpox nomidagi nashriyot-manba ijodiy uyi, 2007. – 6-b

³ G 'aniyeva M.X., Latipova N.M., Negmatov I., Jo'rayev L.N., S herov M.B.; Ijtimoiy ish etikasi Darslik. -T.: «Fan va texnologiya», 2015,

odob normalari ijtimoiy munosabatlar, ta'lim- tarbiya asosida shakllanadi. Etika ya'ni axloqshunoslik fani o'z mohiyatiga ko'ra insonni siyratan baxolaydi, unga mana bu - fazilat, bu esa illat deb, insonning mavjud xislatlarini taxlil qilib ko'rsatadi. Axloqshunoslik sohasi odob-axloq bo'yicha, insonlarning shaxsiy va kasbiy faoliyatida, jamiyat va insonlararo munosabatlarda axloqiy mezonlarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida tushuncha, bilim va ko'mikmalar haqida ma'lumot beradi.

Axloqshunoslik o'z oldiga axloq haqidagi qarashlar tarixini va boy ma'naviy merosini o'rganish asosida zamonaviy odob va axloq qoidalari va ularga amal qilishning ijtimoiy ma'naviy ahamiyatini oshirishdan, jamiyatda yosh avlod va yoshlarning axloqiy saviyasini yuksaltirishga xissa qo'shish, komillik sari intilib yashash ko'nikmalarini shakllantirishdan hamda keng jamiyat shaxslarini ma'naviy yuksak, axloqan yetuk qilib tarbiyalashdan iborat vazifalarni qo'yadi.

Ijtimoiy ish kasbi mamlakatimizda rivojlanib borayotgan yangi kasb bo'lsada, dunyo miqyosida ushbu sohani bir necha asrlar davomida o'rganish to'xtagan emas Davlat va fuqarolik jamiyatidagi axloqiy yuksaklik darajasini uning fuqarolari axloqiy madaniyati belgilaydi. Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida foydalanishi, o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi. Axloqiy madaniyat shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi. Zero, axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining qator unsurlarini o'z ichiga olgan tuzilmadir. U shaxsning o'zgalar bilan o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Axloqiy madaniyatning uch ko'rinishi mavjud bo'lib, ulardan biri kasbiy odob hisoblanadi.

Axloqiy madaniyat kasbiy odobda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki inson voyaga yetib, bir kasbning boshini tutgach, o'z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo'ladi. Bu munosabat, bir tomondan, hamkasabalar davrasida ro'y bersa, ikkinchi jihatdan, u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar bilan yuzaga keladi. Ayni paytda, kasbiy odob axloqiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan biridir. Har bir jamiyatda muayyan guruhlar

borki, egallagan kasblari ularni boshqa jamiyatdoshlariga nisbatan imtiyozli darajaga olib chiqadi. Kasbiy odobning nafaqat jamiyat axloqiy hayotidagi balki jamiyat taraqqiyotidagi o'rni beqiyosdir. Zero, jamiyat a'zolarining hayot faoliyati sog'ligi, ma'naviy sog'lomligi, huquqiy himoyasi, ilmiy salohiyatining namoyon bo'lishi kabi omillar kasbiy etika va odob qoidalarining yuksak namunasi bo'lgan kasbiy burch, halollik va vijdon kabi tushunchalar jamiyatda shaxsning kamol topishi va kasbiy hayotida yuksak e'tirof etilgan fazilatlardandir.

O'zbekistonda keyingi besh yil davomida ijtimoiy soha va ijtimoiy soha xodimlarinng faoliyati jonlandi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev sa'y harakatlari bilan hukumat qarorlari qabul qilinib islohotlar amalga oshirildi. Xususan, Prezidentimizning “Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoniga muvofiq, aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamiga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish, ijtimoiy sohaning boshqaruvi organlari uchun kadrlar tayyorlash maqsadida ijtimoiy xodimlarni tayyorlash va ularni aholining muayyan guruhi bilan ishlashga ixtisoslashtirish, alohida mijoz, mijozlar guruhi (oila, ayollar, bolalar, yoshlar, keksalar va h.k.) bilan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.⁴ **Shuni alohida aytib o'tishimiz joizki, ijtimoiy soha davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan biridir. Zero, prezidentimiz Shavkat mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: “Davlat va jamiya boshqaruvida ayollarning o'rni va mavqeyini yanada mustahkamlash islohotlarimizning eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir”⁵**

Inson kamoloti ko'p qirralidir. Uning buyukligi ma'naviy kamolot darajasi bilan belgilanadi. Yetuk ma'naviyatga ega bo'lgan insongina jamiyat muammolarini aqli va zakovati bilan yechishga harakat qiladi. Chunki inson o'z atrofidagi odamlar ta'sirida kamolotga erishadi. Ta'lim-tarbiya, ijtimoiy munosabatlarning

⁴ M.X. GANIEVA, Q.N. KAYUMOV, M.B. SHEROV. IJTIMOIY ISHGA KIRISH. Darslik – T: 2020. – 250

⁵ O'zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi va O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqidan iqtiboslar. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. Matn. Publikatsiya. –T. 2021. 23-bet

shakllanishi va rivojlanishi insonlarning xatti-harakatlarini, ular o‘rtasidagi munosabatlarni ma’naviyat bilan bog‘lanmagan tabiiy ehtiyojlar va imkoniyatlar chegarasidan tobora uzoqlashtirib boradi. Zotan, inson jamiyatda yashar ekan, undan chetda turolmaydi. Insonlarga xos bo‘lgan axloq me’yorlari jamiyat taraqqiyoti va hayotiy ehtiyojlar ta’sirida o‘zgarib turadi.

Axloqiy madaniyat kishilik jamiyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning asosini jamiyatda inson o‘zini qanday tutishi kerakligini belgilab beruvchi axloqiy me’yorlar tashkil etadi. Insoniyatning qadimiy tarixi, ijtimoiy himoya va o‘zaro ijtimoiy yordam o‘sha moziyning qabila-urug‘chilik aloqalariga asoslanuvchi ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq ijtimoiy o‘zaro ko‘mak ko‘rsatish, qariyalar, bolalar, nogironlar haqida g‘amho‘rlik ko‘rsatish axloqiy qadriyat sifatida shakllangani va rivojlanib borganligidan dalolat beradi. Ijtimoiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida ijtimoiy himoya g‘oyalari diniy ta’limotlar va aqidalar tarzida o‘z ifodasini topdi hamda asosan diniy qadriyatlar sifatida amalga oshirilib kelindi. Ammo, shu bilan birga o‘zaro ijtimoiy ko‘mak ko‘rsatish axloqiy tafakkurning muhim elementi sifatida xalq ongida ham chuqur joylashgan.

Shunday ekan axloq jamiyat siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy voqeliklarini inson xulq-atvori, xatti-harakati aniqrog‘i, umume’tirof etilgan milliy-ma’naviy va zamonaviy me’yorlargamos kelishini ta’minlovchi va belgilovchi ma’naviy mezondir.

Huquqiy davlatning shakllanishi va jamiyat ishlari boshqaruvining takomillashuvi o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik kuchayib borayotgan hamda erkin fuqaro ma’naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizdagи muhim vazifaga aylanib borayotgan hozirgi paytda insonning jamiyatda shaxs sifatida shakllanishi va yosh avlodlarning barkamol shaxs sifatida voyaga yetishi davlatimizning jamiyatimizning qolaversa butun insoniyatning oldida turgan majburiyati va burchi bo‘lib qolmoqda. Sog‘lom avlod tarbiyasi, ularning oilada kamol topishi, xalqimizda “bir bolaga - yetti mahalla ota-on”, “bola aziz – odobi undan aziz ”kabi ezgu naqllarimiz ham biz uchun farzandlarimiz tarbiyasi, axloqiy yetukligi bizning eng oly burch va vazifamiz ekanidan guvoh beradi.

Mustaqil O‘zbekiston davlatining milliy yuksalish sari tanlab olgan taraqqiyot yo‘lidagi barcha orzu-umidlarimiz, ezgu intilishlarimiz va bonyodkorlik rejalarimiz hamdaqo‘lga kiritayotgan muvaffaqiyatlarimiz yagona maqsad yo‘lida uyg‘unlashadi. Bu maqsad Vatanimiz taraqqiyotining muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan O‘zbekistonimiz mustaqilligini mustahkamlash, uni himoya qilish va umriboqiyligini ta’minlash yo‘lida sobit tura oladigan irodali, kuchli va bilimli farzandlarimizni, barkamol avlodni tarbiyalash bilan bog‘liqdir. Bir so‘z bilan aytganda, yuksak ma’naviyatli, zamonaviy bilim bilan ilm-ma’rifat cho‘qqisiga intilayotgan yoshlarimiz bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlar, yangilanish va o‘zgarishlarning ijodkori va tashabbuskori bo‘lmog‘i lozim. O‘zbekiston tanlagan milliy yuksalish yo‘lida ilm-fan, ta’lim-tarbiya masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi bejiz emas. Zero, intellektual salohiyatga ega bilimli, yuksak ma’naviyat va ma’rifat sohiblari bo‘lgan yoshlar hozirgi davrning shiddatkor mazmunini belgilab beruvchi kuchdir.

Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish joizki, Muhtaram Prezidentimiz 2022-yilda ham “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” davlat dasturi bilan bir qancha islohotlar amalaga oshirildi. Yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirilmoqda. Shubhasiz, amalga oshirilayotgan islohotlarimiz samarasi, ezgu maqsadlarimizning pirovard natijasi avvalo ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligi bilan o‘lchanadi. Ilmiy salohiyat ilm-fan taraqqiyoti yuksakligi-eng avvalo ma’naviyat yuksakligining in’iqosidir. Faqatgina ma’naviyat nuriga yo‘g‘rilgan ilm-fan, ixtiro va kashfiyotlar insoniyat istiqboli,millat, xalq va mamlakat taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Shunday ekan, bugungi kun talabalariga javob bera oladigan, yetuk mutaxassis, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ularni ilmiy salohiyat hamda amaliy ko‘nikmalariga egabo‘lgan zamonaviy kadrlar sifatida eng ilg‘or texnika va texnologiyalar bilan jihozlar bilan ta’minlanayotgan ishlab chiqarish sohalari va tarmoqlarini ta’minlash bilan bir vaqtida, mutaxassis kadrning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish, uni milliy

g‘urur va vatanparvarlik, mustaqillik g‘oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalash oliy ta’limning dolzarb vazifasidir. Ushbu vazifalardan kelib chiqib, ham ta’limiy, ham tarbiyaviy yo‘nalishda o‘z maqsad va vazifalarini talaba-yoshlarning dunyoqarashi, fikrlash madaniyati, ijtimoiy faolligi va ijodiy faolligini shakllantirishga yo‘naltirgan ijtimoiy fanlar o‘z mazmuniga mos holda mutaxassislik bilimlarining sifat samaradorligi va ijtimoiy yo‘naltirilganligini mutaxassis ongiga singdirib, uning ma’naviy mas’uliyatitarbiyalaydi. Demak, oliy ta’lim tizimining ilmiy, ma’naviy-axloqiy va ma’rifiy fazilatlarni o‘zida mujassam etadigan barkamol avlodni tarbiyalash sari yo‘naltirilganlik ijtimoiy fanlarning mazmun – mohiyatini tashkil etadi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi va O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan iqtiboslar. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. Matn. Publikatsiya. –T. 2021. 23-bet
2. Abdulla Sher. Axloqshunoslik — T. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. —8-bet
3. A.A. Allaberganov, Ye.R. Akovbyans, M.S. Xodjayeva. Kasb etikasi va psixologiyasi – T. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-manba ijodiy uyi, 2007. – 6-b
4. G ‘aniyeva M.X., Latipova N.M., Negmatov I., Jo‘rayev L.N., S herov M.B.; Ijtimoiy ish etikasi Darslik. -T.: «Fan va texnologiya», 2015,
5. M.X. GANIEVA, Q.N. KAYUMOV, M.B. SHEROV. IJTIMOIY ISHGA KIRISH. Darslik – T: 2020. – 250